

BADIIY MATNNI TUSHUNISHDA UMUMIY BILIM FONDINING (EMBODIMENT) AHAMIYATI

Sultonova Gulbaxor Murtazaxonovna

Halqaro oziq-ovqat instituti ingliz tili o'qituvchisi

sultonovagulbahorhon@gmail.com

Tel: +998902773319

Annotatsiya: *Kognitiv lingvistikada inson tafakkuri bilan bog'liq masalalar tahlil obyekti sifatida o'rganilar ekan, badiiy matnni anglash, tushunish va sintezlash jarayonlari haqida fikr yuritilishi maqsadga muvofiqdir. Yangi axborotni sintezlash va analiz qilish jarayoni oldingi ma'lumotlar bazasiga qarab amalga oshirilishi va asos bo'lib xizmat qilishini bildiradi. Jahon kognitiv lingvistlari bu haqida ko'plab imperik izlanishlar olib borganlar. Badiiy matnda muallif tomonidan taqdim qilinayotgan ma'lumot kitobxon tomonidan umumiy bilim fodi asosida qabul qilinadi va usha axborot asosida yangi konseptlar shakllanadi. Quyidagi maqolada bu fikrlar jahon olimlarining ilmiy izlanishlari bilan kengroq yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *umumiy bilim fondi, konseptual ma'no*

THE IMPORTANCE OF GENERAL KNOWLEDGE FOUNDATION (EMBODIMENT) IN UNDERSTANDING A LITERATURE TEXT

Abstract: *Since issues related to human thinking are studied as an object of analysis in cognitive linguistics, it is appropriate to reflect on the processes of understanding, comprehension and synthesis of a literary text. This means that the process of synthesizing and analyzing new information is carried out based on the previous database and serves as a basis. Cognitive linguists around the world have conducted many empirical studies on this. The information presented by the author in a literary text is perceived by the reader on the basis of a general body of knowledge, and new concepts are formed on the basis of this information. In the following article, these ideas are more widely covered with scientific research by world scientists.*

Keywords: *embodiment, conceptual meaning*

ЗНАЧЕНИЕ ОБЩЕГО ЗНАНИЯ (ВОПРОСА) В ПОНИМАНИИ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ТЕКСТА

Аннотация: *Поскольку вопросы, связанные с человеческим мышлением, изучаются в качестве объекта анализа когнитивной лингвистики, уместно рассмотреть процессы понимания, осмысления и синтеза художественного текста. Это означает, что процесс синтеза и анализа новой информации осуществляется на основе предыдущей базы данных и служит ее основой. Когнитивные лингвисты всего мира провели множество эмпирических исследований по этому вопросу. Информация,*

представленная автором в художественном тексте, воспринимается читателем на основе общего массива знаний, и на основе этой информации формируются новые понятия. В данной статье эти идеи более широко освещаются научными исследованиями мировых ученых.

Ключевые слова: воплощение, концептуальное значение

KIRISH

Bugungi kunda badiiy matnni talqin qilish va tushunish jarayoni faqat lingvistik tahlil doirasida emas, balki insonning umumiy bilim fondi, ya'ni tajriba, madaniy xotira va jismoniy idrok bilan chambarchas bog'liq holda o'rganilmoqda. Kognitiv lingvistika va matnshunoslikda "embodiment" — "tanaviylik" konsepsiyasi aynan shu jihatni yoritadi. Unga ko'ra, inson fikrlash jarayoni, tasavvurlari va matnni anglash qobiliyati faqat til birliklariga emas, balki insonning tanaviy tajribasi, hissiy idroki va hayotiy kontekstiga tayanadi.

Badiiy matn o'z tabiatiga ko'ra ko'p qatlamli, ramziy va emotsional mazmunga ega bo'lib, uni to'liq anglash uchun o'quvchi shunchaki so'zlarni emas, balki ularning ortida yashiringan hayotiy tajribalarni, ijtimoiy-madaniy signallarni ham sezishi lozim. Shu ma'noda, umumiy bilim fondi — insonning dunyoni bilish tajribasi, ijtimoiy qadriyatlari, tarixiy xotirasi va madaniy kompetensiyasini o'z ichiga olgan tizim — matnni anglash jarayonining asosi sifatida namoyon bo'ladi.

Embodiment nazariyasi badiiy matnni tushunishda o'quvchining individual tajribasini faollashtiradi: u obrazlarni tasavvur etish, ularni his qilish, matn voqealarini "tanada yashash" orqali mazmunni chuqurroq qabul qiladi. Natijada badiiy idrok jarayoni til, tafakkur va jismoniy tajriba o'rtasidagi murakkab o'zaro ta'sir sifatida shakllanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI BVA METODOLOGIYA

Kognitiv lingvistikada ma'no va tushunish asosiy o'rinda bo'lib, unda ma'lumotni qanday tushunish masalasiga e'tibor qaratiladi. Amerikalik tilshunos Dj.Lakoffni yozishicha, ma'no inson uchun ahamiyatli narsadir, bu esa insonning atrof-muhitdagi faoliyati bilan bogliq holda tushuniladi. Tilshunos ma'no tushunish jarayonini bevosita(direct) va bilvosita (indirect) turlariga ajratadi. J.Litlmor va J.R.Taylor bu soha ustida izlanishlar olib borar ekan, tushunish jarayonida tilning qanday ishlatilganligi muhim rol o'ynashini qo'shimcha qiladilar. Ular ma'no qurilishida tilning o'zgarishiga (language variation) tashqi faktorlar, ya'ni geografik

hudud (regiolects), yosh, gender, sotsial status, stil, register va boshqalar ta'sirini ta'kidlaydi.

Amerikalik tilshunos olim M.Achard va nemis olimi S.Niemeierlarning bu sohaga bag'ishlangan kitoblarida konseptual ma'noning qurilishida semantik, grammatik va polisemantik birliklarning ahamiyati kattaligiga izoh beradilar. Chunki, grammatik birliklar har qanday, ayniqsa, ikkinchi til egalariga to'g'ri tushunish va fikrni ifodalash imkonini berishini ta'kidlaydilar

Kognitiv lingvistikani tahlil qilar ekanmiz, bir qator olimlarning nazariyalari e'tiborimizni tortadi. Kanadalik olim M.Borkent tadqiqot ishlarini vizual poeziyaga bag'ishlar ekan, embodiment, ya'ni asosiy e'tiborni mujassamlashuv jarayoniga qaratadi va bu kognitiv lingvistikani vizual poeziya bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Yapon tilshunos olimasi M.Hira ham vizual poetik matnlarlar ustida ishlar ekan, ikoniklik bilan metafora o'rtasidagi parallelizm mavjuvligini, bu esa soha obyekt bilan o'zaro birga ifodalanishi kerakligini ta'kidlaydi. Tadqiqotchining fikricha, oddiy bo'lib ko'ringan har qanday matn murakkab ma'noga egadir.

MUHOKAMA

Badiiy konsept haqida ko'plab tadqiqotchilar fikr yuritganlar va unga kognitiv lingvistikaning markaziy obyekt sifatida qaraganlar. Rus olimasi I.A.Tarasova O.V.Bespalovning dissertatsiyasini tahlil qilar ekan: "Badiiy konsept shoir yoki yozuvchining ong birligi bo'lib, u badiiy asar yoki bir qator asarlarda o'z ifodasini topadi va muallifning buyum yoki hodisalarning mohiyatiga individual yondashuvini aks ettiradi", deydi. Olima I.A.Tarasova o'z tadqiqotlarida A.A.Zalevskayaning bu mavzu xususigagi qarashlariga o'zining positsiyasini bildirib, konsept individning ong birligi ekanligini va uning bilish, kommunikativ faoliyatiga ta'sir etuvchi, shakllantiruvchi dinamikasini, xarakterini o'zida mujassamlashtirgan tuzilma ekanligini o'z fikrida izohlaydi. Bu o'rinda dinamik xarakter deganda doimiy stabil emas, ya'ni o'zgarishga moyil va o'zgaruvchan funksiyani o'z ichiga oladi degan fikr anglashiladi. Qo'shimcha qilib aytganda, konsept insonning bilish, idrok, ruhiy kechinma va ruhiy qonuniyatlariga bo'ysunadi va shu bilan birga unda o'z aksini topadi. Konsept inson ongida yillar mobaynida murakkablashadi va kuchli ta'sirga

ega ekanligi bilan izohlanadi. I.A.Tarasova badiiy konseptni tahlil qilishda quyidagi ikki yondashuv orqali amalga oshirish maqsadga muvofiq ekanligini ta'kidlaydi:

1. Muallifning individual ruhiy, ma'naviy kechinmalarining ifodasi shaklida. Bunda asar mavzusi, muallifning ruhiy, manaviy qarashlari, ma'lum bir voqelikka bo'lgan munosabati, reaksiyasi konsept mahsuli hisoblanadi.

2. Badiiy konseptni milliy-madaniy dunyoqarashning bir bo'lagi sifatida qarash va tahlil qilish bilan ifodalanadi. Bunday yondashuv esa konsept tushunchasini ko'proq milliy ong birligi sifatida talqin qilishga imkon yaratadi. Badiiy konsept shakllanishida asrlardan buyon davom etib kelayotgan an'ana, udum, madaniy dunyoqarash va hattoki ma'lum hudud, millat ma'naviyatining o'zaro ta'sir kuchi borligini hech kim inkor eta olmaydi. Bu yondahsuv ham qaysi bir ma'noda birinchi yondashuvni to'ldiradi va parallel holda yuzaga chiqadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, badiiy matnlarning tushunish jarayonlarida linguakultorologik belgilarning namoyon bo'lishi masalasi ham kognitiv lingvistikani yanada izloh qilishimizga yordam beradi.

Badiiy matnni chuqur va mazmunli tushunish insonning umumiy bilim fondi — ya'ni embodiment konsepsiyasi bilan bevosita bog'liqdir. Chunki matnni idrok etish jarayoni faqat til birliklarini anglashdan iborat emas, balki o'quvchining hayotiy tajribasi, hissiy kechinmalari, madaniy xotirasi va dunyoni jismoniy idrok etish qobiliyatiga tayanadi. Har bir badiiy obraz, metafora yoki voqea o'quvchi ongida uning tanaviy va hissiy tajribasi orqali jonlanadi, bu esa matn mazmunini yanada teran anglash imkonini yaratadi.

Embodiment nazariyasi asosida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, inson tafakkuri, til va tana o'zaro uyg'unlikda faoliyat yuritadi. Shu sababli, badiiy matnni o'rganishda nafaqat lingvistik, balki psixologik, madaniy va kognitiv omillar ham inobatga olinishi zarur. Badiiy idrok — bu o'quvchining ongli va ongsiz darajada amalga oshadigan murakkab jarayon bo'lib, unda matn va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik markaziy o'rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Archard M., & Niemeier S. Cognitive Linguistics, Second Language Acquisition, and Foreign Language Teaching. De Gruyter Mouton, 2004. – P. 1-3.
2. Borkent M. Illusions of simplicity: A cognitive approach to visual poetry //English Text Construction. – 2010. – Vol. 3. – №. 2. – P. 145-164.

3. Hiraga M. Metaphor and Iconicity: A Cognitive Approach to Analyzing Texts. – Palgrave Macmillan, 2005.
4. Тарасова И.А. Художественный концепт: Диалог лингвистики и литературоведения. Вестник Нижегородского университета им. Н.И.Лобачевского, 2010. – С. 742-243.